

JADIDLARNING SAFAR XOTIRALARIDA ZAMONAVIY TA'LIM XUSUSIDAGI QARASHLARNING AKS ETISHI VA UNI AMALGA OSHIRISHLARI

Urakova Feruza Nurillayevna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16759706>

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid mutafakkirlaridan Mahmudxo'ja Behbudiy hamda Is'hoxon Ibratning xorijga qilgan sayohatlari davomida zamonaviy ta'lim xususidagi qarashlari va uni Turkistonda joriy qilishdagi o'rni, ahamiyati borasida xulosalar berilgan.

Аннотация: В данной статье представлены выводы о взглядах джадидских мыслителей Махмудходжи Бехбуди и Исхохона Ибрата на современное образование во время их поездок за границу, а также о их роли и значении в его внедрении в Туркестане.

Annotation: This article presents conclusions about the views of Jadid intellectuals Mahmudkhoja Behbudi and Is'hoqhon Ibrat on modern education during their travels abroad, as well as their role and significance in its implementation in Turkestan.

Kalit so'zlar: ma'rifat targ'ibotchisi, maslakdosh, usuli savtiya, nasiro dini, elektriy lamfa, adabiy tarbiyat.

Millat tafakkurini yuksaltirish, turli mafkuraviy tahdidlardan himoyalashda ma'rifatparvar jadidlarning o'rni beqiyosdir. Ular qoldirgan meros xalq farzandlarini savodli, dono bo'lishlarida o'rni beqiyosdir. Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi Mahmudxo'ja Behbudiy va ma'rifat targ'ibotchisi Ishoqxon tura Ibrat nomlari alohida e'tirofga sazovordir.

Har doim jadidlar faoliyati va amalga oshirgan ishlarni o'rganish va tadqiq qilish olimlar jamoasi uchun, ayniqsa tarixchi va filologlar oldidda turgan asosiy yoritilishini kutayotgan masalalardan biri sifatida turgan. Biroq mustaqillikdan keying yillarda jadidlarning faoliyati va ilmiy me'rosini tadqiq etish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Hukumat qarorlari va rag'bat bilan bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar ko'lami kengayib bormoqda. Ayniqsa oxirgi yillardagi mamlakatimizda jadid namoyondalarining g'oyalarini davlat siyosatida ustuvor masala sifatida maydonga chiqishida jonbozlik ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jadidlar merosi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida" gi qarori qabul qilindi.¹ Jadidlar faoliyati va ular amalga oshirgan ishlar va asarlarini tadqiq etgan izlanuvchilar va olimlar safiga D.Alimova, U.Dolimov, B.Qosimov, T.Qozoqov, D.Jamolova kabi tadqiqotlarni misol tariqasida ayta olamiz.

Mahalliy tadqiqotlardan tashqari xorijlik tadqiqotchi olimlar tomonidan ham keng qamrovli ilmiy ishlar amalga oshirildi va bu jarayon davom etmoqda. Dunyoning AQSH, Buyuk Britaniya, Turkiya, Fransiya kabi mamlakatlari ilmiy tadqiqot markazlari va universitetlarida XIX asr oxiri-XX asr boshlarida musulmon mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'zgarishlar, jadidchilik harakatining vujudga kelish sababablari hamda jadid namoyondalarining asarlari o'rganilmoqda. Shuningdek jadidchilik harakatining jamiyat va davlatni isloh qilishdagi o'rni va roli ham tadqiq qilinmoqda. Xususan, bularga misol qilib, Darxan Kydyraliyev, Derlihan Bora, Izzatellah Zeki va shu kabi xorij va qardosh xalq vakillarining ilmiy izlanishlarini misol qilib keltirsak bo'ladi.

O'zbekistonda mustaqillikdan keyin jadidchilik harakati haqida ko'plab tadqiqotlar

¹ <https://www.lex.uz/uz/docs/-6947380>

amalga oshirildi, biroq jadidlar amalga oshirgan sayohatlar tarixi va sayohatlarning jadidlar dunyoqarashiga ta'siri, ahamiyati kam tadqiq qilingan. Jamiyatni isloh qilishda jadidlar amalga oshirgan safarlarning amaliy ahamiyati, qarashlarning shakllanishidagi roli, xorijdan keltirilgan fan-texnika yutuqlarini Turkiston o'lkasida joriy qilish uchun amaliy harakatlar tarixi tadqiq qilish mavzu dolzarbligini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19.07.2024 yildagi PQ-270-son "Siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini o'rganish, targ'ib etish hamda ularning xotirasini abadiylashtirish borasidagi ishlarni kengaytirish to'g'risida"gi qarori² va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Bundan tashqari maqolada Mahmudxo'ja Behbudiy hamda is'hoqxon Ibrat misolida ularning sayohatlari, haj amallarining ularni faoliyatlaridagi ahamiyati ochib berilgan. Hozirgi davrda ham ta'lim sohasida ilg'or texnologiyalarni joriy etish va uni mamlakatimiz ta'lim tizimiga moslashtirish asosiy masalalardan biri bo'lib turibdi. Oradan vaqtlar o'tgan bo'lsada bu masala dolzarbligini zarrcah yuqotmaganligini ko'rib turibmiz.

Maqolani ahamiyatini ko'rsatadigan asosiy jihatlardan biri yuqorida aytilgan sayohatchi jadidlarni sayohatlardan olgan ta'surotlari bo'lsa yana bir jihati ularni o'lkada joriy qilish uchun harakatlari. Bu jarayon jadidlar faoliyatini o'rganishda asosiy jihatlardan biridir. Chunki bu sayohatlar natijasining amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Jadidlarning sayohatlari nafaqat ularning dunyoqarashini o'zgartirgan, balki O'rta Osiyo taraqqiyotiga xizmat qiladigan innovatsiyalarni o'zlashtirilishiga ham xizmat qilgan. Millat ziyolilarining Turkiston o'lkasida ma'rifatni rivojlantirish uchun olib borgan harakatlarida sayohat va safarlarning o'rni beqiyosdir. Mahmudxo'ja Behbudiy va Ishoqxon Ibrat misolida ana shunday sayohatlar amalga oshirilgan. Mahmudxo'ja Behbudiy 1899-1900-yillarda haj ziyoratiga boradi. Haj ziyoratini amalga oshirish davomida turkistondagi vaziyatni solishtirdi, taftish qildi va taqqosladi. Bu masalalar doirasida o'z maslakdoshlari va dunyoqarashi keng insonlar bilan mushohada va munozaralar o'tkazdi.

1914-yilgi sayohatlari davomida Kavkaz, Turkiya, Qirim, Misr, Yunoniston, Bulg'uriston, Avstriya, Germaniyaning qator shaharlarida bo'ldi.

Is'hoqxon Ibrat ham haj safarini amalga oshirish davomida ko'plab o'zi uchun yangiliklarni ochdi. 1887-yili onasi Huribibi bilan birgalikda hajga yo'l oladi. Biroq Ibrat uchun bu haj amali yakuni biroz ko'ngilsiz yakunlangan bo'lsada, u Istanbul, Sofiya, Afina, Rim, Berlin, Parij kabi Yevropa shaharlari bo'ylab sayohatlarni amalga oshirdi.

Har ikkala taraqqiyparvar ham bu sayohatlardan o'lkan taasurol va yangiliklar bilan qaytadi. Har ikkal jadid til bilishni asosiy zarurat sifatida ta'kidlab o'tadi. Xususan til bilish zarurati haqida quydagilarni bayon qiladi: "Bilmoq kerakki, Ruscha o'qimoq ila kishi kofir bo'lmaydur va yo ruslar bizlarg'a dinlaridan ta'lim bermaydur. Masalan bu kun Samarqand muxtalif maktablarig'a yuzdan ziyoda musulmon bolasi bor va alarni hech biriga nasirol dinini ta'lim bermaydur".³ Behbudiy sayohati davomida til bilmagan musulmonlar ahvoli ayanchli holatda ekanligi haqida ham yozadi. Hozirgi davrda ham bu masala o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

² <https://www.lex.uz/uz/docs/-7027939>

³ Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. II jild. Toshkent. "Akademnashr" 2018-yil. 8-bet

Is'hoqxon Ibrat "Mezon-uz zamon" asarida usuli savtiya maktablarining afzalligi haqida aytadi va uni joriy qilishda xalq qarshiligini bayon qilib o'tadi. Yangicha ta'lim usulini osonlik bilan odamlar qabul qila olmagan. Bu faqat yangilikdan qo'rqish emas balki, avvalgi eski usulda ta'lim bergan ustozlarni daromadsiz qolishidan ham qo'rqitgan rost. Chunonchi "o'zim mushohada qildimki, bizning taraflarda usuli savtiya maktabi joriy bo'ldi. Bunga ko'p ulamolar qarshi bo'lub, oxiri Marg'inonda bir usuli jadid muallimi ila ulamo munoqasha qilg'onda, bechora muallim man ta'lim qiladurg'on ilmlarimni huzuri quzzotda, ya'ni siyazdga shogirdlari ilan kelib dediki " Ey ulamoi ahli islom ey quzzoti zul-ehtiromlar, banda necha muddatdan buyon avlodlaringizning ta'lim adabiy tarbiyatidaman"⁴

Taraqqiyparvar Ibrat o'zining fikrlarini davom ettirarkan, insonlar og'irini yengil qilgan fan-texnika yutuqlarini afzalligini sodda tilda shunday ta'riflaydi: "Emdi umuri maishat rohatga badal bo'ldi. Bobolarimiz chaqmoq chaqar erdilar, ko'rki hozir qandoq rohat. Qaro chiroq yoqar erdilar, elektriy lamfa qandog' rohatdur. Inqilob zamon shundoq qildi."⁵ Ibrat o'zining "Mezon uz zamon" asarida ko'p bora fan-texnika afzaliklari haqida yozadi. Ularga qarshi chiqib ikkilanish paydo qiladigan ulamolarning ba'zilarini tanqid qiladi.

Tarix fanlari doktori, professor Dilorom Alimova Mahmudxo'ja Behbudiy faoliyatida safarlarning alohida ahamiyat kasb etishi va uning ahamiyati haqida shunday yozadi: "U poyezdda, paraxodda, otda va piyoda sayr qiladi, ya'ni barchasini o'z ko'zi bilan ko'rish: nazar solish, fikr qilish, taqqoslash, tahlil etish, eslab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi. bundan tashqari, kelishuvga erishish, ma'naviy, tadbirkorlik aloqalarini o'rnatish, kerakli kitoblar, gazeta va jurnallar, darsliklar, o'quv dasturlarini sotib olish, ya'ni yurtga qaytganidan keyin buyuk ma'rifatchilik faoliyatida qo'llanila boshlagan hamma narsani keltirish imkoniyati tug'uladi".⁶ Behbudiy safari davomida borgan shaharlaridagi maktab ta'limi va ularda ta'lim tizimini tashkil etilishi masalalariga ham alohida ahamiyat beradi.

Begali Qosimov ta'kidlaganidek, "bizdagi jadidchilik Kavkaz, Turkiya, Volgabo'yi jadidchiliklariga nisbatan an'analarga ko'proq bog'langan edi. Umumiyevropa ijtimoiy-madaniy jarayoniga tortilish darajasi qiyinroq kechgan jadidchilik. Bizda har bir yangilikning kirib kelish jarayoni g'oyat og'ir kechgan".⁷

Jadidchilik namoyondalari o'zining asosiy maqsadlaridan biri sifatida ta'lim tizimini isloh qilishga intilgan. Ushbu harakatning vakillari turli davlatlarga sayohati davomida ilg'or pedagogik usullarni o'zlashtirib o'z maktablarida joriy etishga va ularni mahalliy sharoitga moslashtirishga intilgan. Biroq bu harakatlar ma'lum ma'nodagi qarshiliklarga duch keldi.

Mahmudxo'ja Behbudiy hamda Is'hoqxon Ibratning sayohatlari davomida tanishgan ilm-fan yangiliklari va zamonaviy texnologiyalarini o'rganishga va uni joriy qilishga bo'lgan intilishi o'sha davr uchun ham bugungi O'zbekiston ta'lim tizimini rivojlanishi uchun ham katta ahamiyatga ega. Ular dunyoning o'sha davrdagi rivojlangan mamlakatlariga sayohatlari davomida ta'lim-tarbiya va ilm-fanning ahamiyatini chuqur anglashdi. Hozirgi davrda ham ta'lim-tizimi sohasida qator yangiliklar amalga oshirilmoqda, dunyoning yetakchi, samarador pedagogik texnologiyalari ta'lim tizimimizga joriy etilmoqda. Aslida bu harakatni boshlab berganlar ham jadidlar edi.

⁴ Ibrat "Mezon uz zamon" birinchi mezon. 175-bet

⁵ Ibrat "Mezon uz zamon" birinchi mezon. 163-bet

⁶ Dilorom Alimova. Jadidchilik fenomeni. Toshkent: "Akademnashr" 2022 yil. 146-bet

⁷ Begali Qosimov. milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoiylilik. Toshkent. "Ma'naviyat" 2002-yil. 8-bet

Hozirgi davrda joriy etilayotgan zamonaviy texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etishda Behbudiy hamda Ibratning sayohatlari davomida ko'rgan kechirganlari va ta'asurotlari haqidagi ilmiy adabiyotlarni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarixiy anglash va madaniy aloqalar – Jadidlarning sayohatlari faqat ta'lim bilan cheklanib qolmay, balki umuman dunyoqarashni kengaytirish, yangi ijtimoiy va siyosiy modelni tushunishga xizmat qilgan. Ularning safarlarini o'rganish orqali XIX–XX asr boshlaridagi madaniy aloqalarni tahlil qilish mumkin. Sayohatlar va intellektual taraqqiyot – Ilmiy safarlar har doim yangiliklarga eshik ochgan. Jadidlarning safarlari va o'sha yerdan o'rganganlari bugungi globallashuv jarayonlari bilan bog'liq muhim masalalarga oydinlik kiritadi.

Ta'lim tizimini modernizatsiya qilishga ta'siri – Sayohatlar natijasida jadidlar xorijdagi ilg'or ta'lim metodlarini o'rganib, o'z maktablarida tatbiq etishga harakat qilishgan. Bugungi kunda ta'limni xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida bu tajriba muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi neogloballashuv davrida jadidlar boshidan o'tkazgan qarshilik, jamiyatning yangilikni qabul qilishdagi harakat yoki harakatsizligi, ta'limdagi o'sish tendensiyalarini solishtirish va taqqoslash jihatidan bu davr jadidlarning sayohat va safarlaridan olgan tajribalarini o'rganish lozimligi hozirda ham dolzarligini ko'rsatadi.

Taraqqiyot va qarshiliklar – Ularning safarlari natijasida olib kirilgan yangi g'oyalar jamiyatning ayrim qatlamlari tomonidan rad etilgan. Bu esa modernizatsiya jarayonida yangi g'oyalarning qanday qabul qilinishi va ularga qarshi bo'lgan kuchlar qanday shakllanishi haqida tahlil qilish imkonini beradi.

Xulosa

Jadidlarning ilmiy va ma'rifiy sayohatlarini o'rganish nafaqat tarixiy jihatdan, balki bugungi modernizatsiya va ta'lim islohotlari nuqtai nazaridan ham dolzarbdir. Ularning sayohatlari orqali olingan bilim va tajribalari xalqni uyg'otish, zamonaviy tafakkurni shakllantirish va ta'lim tizimini isloh qilishga yo'naltirilgan edi. Ushbu mavzuni chuqur o'rganish orqali nafaqat o'tmish tajribasidan saboq chiqarish, balki hozirgi taraqqiyot jarayonlari bilan bog'liq muhim xulosalarga kelish mumkin.

References:

Используемая Литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begali Qosimov. milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoiylik. Toshkent. "Ma'naviyat" 2002-yil.
2. Dilorom Alimova. Jadidchilik fenomeni. Toshkent: "Akademnashr" 2022 yil.
3. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. II jild. Toshkent. "Akademnashr" 2018-yil.
4. Ibrat "Mezon uz zamon" birinchi mezon.
5. <https://www.lex.uz/uz/docs/>